

TAYYORLOV GURUHLARDA MARKAZLAR BILAN ISHLASH TAMOYILLARI

Abdurasulova Malohat Abdurasulovna
Qashqadaryo viloyati. Qarshi shahar
18- DMTT tayyorlov guruh tarbiyachisi

Annotatsiya: Men bu maqolamda har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni qiziqishlarini hisobga olgan holda mehnatga kasb yo'naltirishning bog'chadagi bug'ini bu markazlar bo'lishini aytib o'tganman .

Kalit so'z: Tarbiyaachi, markaz, qiziqish, mehnat, ota – ona, hohish, kasb, sharoit.

Tayyorlov guruhdagi bolalar aqlan ish ko'radigan yoshda bo'lishadi. Bolalarning qiziqishlariga tayangan holda markazlarga yo' naltiriladi. Yoki o'zi hohlamasada qiziqtirib qiziqishini oshirib borish kerak.

Markazlar bu farzanlarimiz rivojlantiruvchi muhiti hisoblanib bu muhitni tashkil etish ota-onalar , tashkilot rahbari hamda ilmi pedagoglar yordami asosida maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning Yoshi, individual hususiyatlari va ehtiyojlari, shuningdek mintaqaning madaniy va tarixiy hususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhitga quyidagilar kiradi. Mazmunan boy- davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona bino tashqarisidagi inventarlarning xilma- xilligi; Tarbiyalanuvchilarni o'ziga tortadigan o'yinchoqlar albatta xayotga xavf solmaydigan buyumlar mavzuga doir bo'lgan qiziqarli plakatlar bilan ishlash.

Xavfsiz barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi.

Hammabop tarbiyalanuvchilar , shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim tarbiya jarayonida foydalaniladigan barcha faoliyat turlarini ta'minlaydigan o'yinchoqlar qo'llanmalar, resurslar bilan ta'minlanganligini aytib o'tish joizdir.

Vazifalariga keladigan bo'lsak.

Bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

Individual manfaatlarni qo'llab – quvvatlash

Fikrlash jarayonlarini va kognitiv qiziqishini faollashtirish

Rivojlanish faoliyati

Nostandart holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish

Tashabbuskorlikni rivojlantirish, o'z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish

Bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish

Visual- majoziy idrokni rivojlantirish

Xotirani nozik vosita ko'nikmalarini, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish

Kommunikativ ko'nikmalarni muloqot qobiliyatini va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish

Bolalarda izlanish va kognitiv faoliyatni rivojlantirish istiqbollari kengaytirish.

Barkamol shaxsni rivojlantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'niklari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayonida qo'shilish imkoniyatini berishdir .

Bugungi globallashtirish davrida har sohada bo'lgani kabi, ta'lim tizimida ham misli ko'rilmagan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchilardan tezkorlik, intilish, tinimsiz o'z ustida ishlashni talab qiladi. Bolaning 1-sinfga borishi maktabgacha davrining tugab , kichik maktab yosh davrining boshlanishi, yangi muhit va shart- sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Bolani maktab ta'limiga muvaffaqiyatli o'tishi uchun biz tarbiyachilar bolalarni har taraflama yaxshi bilim ko'nikmalarini rivojlantirishimiz kerak har bir markaz bolaning bir iqtidorini ochib berishga qodirdir shuningdek markazlar tarbiyalanuvchilarni o'sishda to'xtab qolmasliklarini ham ta'minlaydi.

Bir so'z bilan aytganda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi sog'lom muhit hamda rivojlantiruvchi markazlar bor ekan bolalar bemalol mustaqil bilim olishadi va atrofga ham targ'ibot qila olishadi.

Nafaqat bolalarga bilim berish va ularni rag'batlantirib borish ham kerakdir misol uchun

Maqtamoq- bolani uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirmoq, yaxshi qilib ko'rsatmoq. Taqdirlamoq bolani qadrlamoq munosib erishgan yaxshi natijali tashabbusi uchun baholamoq, bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirmoqlik bolani yanada undashga o'rganishga harakat qilish tuyg'ularini oshiradi. Biz tarbiyachilar xech nimani unutib qo'yishga xaqimiz yo'q chunki biz yosh nihollar bilan faoliyat olib boramiz .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilk qadam davlat o'quv dasturi 2022 yil.
2. Maktabgacha tayyorgarlik 2014 yil.
3. Maktabgacha ta'lim metodikasi 2022 yil.
4. 3-7 yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha metodik tavsiyalar.